

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: O'zbekistonning eng yangi tarixi		
Fan kodi: O'YT1104	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Ijtimoiy-siyosiy fanlar		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: TKTI barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari		
Fan ma'ruza o'qituvchilari: Sirojov O.O., Atamuratov S., Mamatqulov R.U., Axmedov E.K., Xaldibekova F.T., Hamroyev S.S.		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 120	Email: ijtimoiy-siyosiyfanlar@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Sirojov O.O., Atamuratov S., Mamatqulov R.U., Axmedov E.K., Hamroyev S.S., Yorqulov H.O., Tosheva G.Sh., Ovlaqulov N.A., Avlakulov A.M.		
Prerekvizitlar:		Tanlov turi: majburiy
<p>Fanning qisqacha bayoni: O'zbekiston tarixi, shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixi jahon tarixining ajralmas bir qismi bo'lib, u bizning zamonamizdagi global jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Eng yangi tarixni o'rganishning muhimligi shundaki, u mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'naviy jihatdan barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi voqea-hodisalarni tushunishga hamda teran idrok etishga yordam berishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, u bizga tarixiy taraqqiyot tendentsiyalarini oldindan ko'ra bilish va bashorat eta olish imkloniyatini beradi..</p>		

Fanning maqsadi: Fanni o'qitishning maqsadi – mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaning o'rnini, o'zligini anglatishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lning mazmun-mohiyatini, O'zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida bilimlarni egallash;
- O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish;
- Zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilishi kera;
- O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildirib olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rnini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g'oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo'lish;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti muzey, teatr, madaniyat markazlarida sayyor dars tarzida olib boriladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy metodologik tamoyillari.			
2	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari (Qadimgi davr va o'rta asrlarda davlatchilik taraqqiyoti)			
3	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari (Rossiya imperiyasi va sovet hukmronligi davri)			
4	Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar			
5	Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati			
6	O'zbekistonning o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'li			
7	O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar			
8	Iqtisodiy islohotlar, xususi mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi			
9	O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o'zgarishlar			
10	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot, ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar			
11	Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi			
12	O'zbekiston va jahon hamjamiyati			
13	Yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.			
14	O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzini ortib borishi			
15	Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar (Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi)			
Jami		30	30	60

Asosiy adabiyotlar

1. Mustaqil O'zbekistonning tarixining dastlabki saxifalari. – Toshkent, 2000.
2. Erkayev A. O'zbekiston yo'li. – Toshkent: ma'naviyat 2011.
3. Mustaqil: bzoqli ilmiy-ommabop lug'at // M.Abdullayev va boshqalar: to'ldirilgan uchinchi nashr. – Toshkent: Sharq, 2006.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishning beshta ustivor

- yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasi- Toshkent: Maʼnaviyat, 2017.
5. Mustaqil Oʻzbekiston tarixi. Masʼul maharrir A.Sabirov. – Toshkent: Akademiya, 2003.
 6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. – Ташкент: адабиёт учкунлари

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. Azizxoʻjayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – Toshkent: 2001.
2. Azizxoʻjayev A.A. chin oʻzbek ishi. – Toshkent, 2003.
3. Axmedov E. Oʻzbekiston shaharlar mustaqillik yillarida. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, 2002.
4. Islomov Z.M. Oʻzbekiston Modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2005.
5. Leviting L. Oʻzbekiston tub burilish pallasida. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2005.
6. Usmonov Q. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – Toshkent: Moliya, 2003.
7. Oʻzbekiston mustaqillik yillarida – Toshkent: Oʻzbekiston, 1996.
8. Oʻzbekiston tarixi R.H.Murtazayevaning umumiy tarixi ostida. – Toshkent, 2005.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.natlib.uz.
4. www.gov.uz.

Kontakt soatlari*: mustaqil taʼlim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur maʼlumotlar va turli materiallar boʻyicha savollarga quyidagi grafik asosida oʻqituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Chorshanba	10.00 – 12.00	S/D-8
2.	Shanba	10.00 – 12.00	S/D-8